

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Sifat sohasidagi siyosati

1. Muqaddima

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) Sifat sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Statistika agentligi tizimida rasmiy statistikaning sifatini ta'minlash va baholash ishlarini boshqarishga qaratilgan.

Statistika agentligining asosiy missiyasi foydalanuvchilarning yuqori sifatli rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi.

Foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonchini oshirishning muhimligi va ustuvorligini hamda statistika faoliyatining xalqaro sifatni boshqarish tizimlariga mos kelishi zarurligini anglagan holda, Statistika agentligi o'z faoliyatini rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari va Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta'minlash bo'yicha milliy tayanch prinsiplari (NQAF) asosida amalga oshiradi.

2. Sifat prinsiplari

Statistika organlari tomonidan rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tarqatish rasmiy statistikaning quyidagi asosiy prinsiplariga to'la muvofiq holda amalga oshiriladi:

- mustaqillik;
- tushunarlilik va shaffoflik;
- aniqlik va ishonchlilik;
- beg'arazlik va xolislik;
- statistik maxfiylik;
- dolzarblik.

Statistika organlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyatlarining birligini ta'minlaydi.

Statistika agentligi rasmiy statistikani shakllantirishda o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va ularni e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Statistika faoliyatini amalga oshirishda kasbiy mustaqillik O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlari

Rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqarish, har biri bir necha amalga oshirish jarayonlaridan iborat bo'lgan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish;
- 2) ishlab chiqish jarayonlarini rejalashtirish;
- 3) ishlab chiqish jarayonlarini shakllantirish;
- 4) birlamchi ma'lumotlarni yig'ish;
- 5) ma'lumotlarni qayta ishlash;
- 6) ma'lumotlarni tahlil qilish;
- 7) rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish;
- 8) ishlab chiqish siklini baholash.

Rasmiy statistikani ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlari sohaga oid me'yoriy va uslubiy hujjatlarga, tegishli statistik tartib-taomillarga to'liq rioya etish, monitoring va nazorat ishlarini tizimli tashkil etish orqali amalga oshiriladi va qo'llab-quvvatlanadi.

Rasmiy statistikani ishlab chiqarishning har bir bosqichi va jarayonida sifatni ta'minlash maqsadida, xalqaro darajada tavsiya etilgan sifat modellari asosida Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy modellar va tartib-qoidalar joriy etiladi va amalga oshiriladi.

Rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati va ishonchliligini doimiy oshirib borish maqsadida, boshqa idora va tashkilotlarning axborot bazalarini Statistika agentligi axborot bazasi bilan integratsiyalash va ma'muriy yoki boshqa manbalardan olinadigan ma'lumotlar ko'lamini muntazam kengaytirib borish choralari ko'riladi.

4. Javobgarlik va hisobdorlik

Statistika agentligi Sifat sohasidagi siyosatning amalga oshirilishini, sifatni boshqarish tizimini doimiy takomillashtirib borilishi va mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Statistika agentligining tarkibiy va hududiy bo'linmalari hamda tizim xodimlarining foydalanuvchilarni dolzarb, sifatli va ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlari bilan ta'minlash bo'yicha javobgarligi hamda shaxsiy mas'uliyati belgilangan tartibda tasdiqlangan nizomlar va lavozim yo'riqnomalarida aniq belgilab qo'yiladi.

Statistika agentligining tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlari rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish bo'yicha o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda Statistika agentligi rahbariyatiga hisobot berib boradi.

Rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalari har chorak yakunlari bo'yicha Statistika agentligining Hay'at yig'ilishlarida tahlil va muhokama etib boriladi, aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kelgusida oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari va rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

5. Kadrlarni o'qitish va kompetensiyasini oshirish

Statistika agentligi rahbariyati tizimdagi barcha xodimlarning:

lozim darajadagi kasbiy bilim va tajribaga ega bo'lishlari, shuningdek, o'zlarining kasbiy layoqati va shaxsiy fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlariga;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini qondirishning hamda qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini bajarishning muhimligini chuqur anglashlariga intiladi.

Rasmiy statistika sohasida kadrlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz oshirib borilishini ta'minlash quyidagi shakllar va usullarda amalga oshiriladi:

- qayta tayyorlashdan o'tish;
- to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish;
- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'qitish;
- bazaviy ta'lim muassasasida o'qitish;
- "ustoz-shogird" usuli bo'yicha ta'lim muassasasida o'qitish;
- ishlab chiqarishda tajriba orttirish (stajirovka);
- ilmiy-tadqiqot muassasasida tajriba orttirish;
- xorijda tajriba orttirish;
- mustaqil ta'lim olish.

Shu bilan birga, Statistika agentligi tizimi xodimlarining nazariy va amaliy bilimlarini yanada chuqurlashtirib borish maqsadida, alohida dasturlar asosida ilmiy-amaliy anjumanlar, taqdimotlar, seminarlar, davra suhbatlari va masofaviy vebinarlar tashkil etib boriladi.

Rasmiy statistikaning sifati va ishonchliligini oshirish, o'zaro tajriba almashish va sohaga oid ilg'or xorijiy amaliyotlarni o'rganish maqsadida, Statistika agentligi xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning statistika idoralari bilan hamkorlik qiladi hamda tizim xodimlarini xalqaro darajada o'tkaziladigan tadbirlar, seminarlar va o'quv kurslarida tajriba oshirib borishlarini ta'minlaydi.

6. Monitoring va baholash

Rasmiy statistikaning sifati Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy modellar va tartib-qoidalar asosida doimiy ravishda monitoring qilinadi va baholab boriladi.

Rasmiy statistika sohasida sifatni boshqarish va baholash ishlari Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan Milliy sifatni boshqarish qo'llanmasi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xalqaro va milliy ekspertlarni jalb etgan holda, Statistika agentligi tizimi faoliyatini global va tarmoqlar bo'yicha baholash ishlari tashkil etiladi.

Milliy statistika tizimi doirasida ishlab chiqilayotgan va e'lon qilinayotgan rasmiy statistika ma'lumotlari sifati va ishonchliligini o'rganish maqsadida, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlari xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o'tkaziladi.

7. Xavf-xatarlarni boshqarish

Statistika agentligi respondentlarning qonuniy huquqlarini hurmat qilgan holda:

birlamchi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydi;

statistik instrumentariylarni takomillashtirish, integratsiya jarayonlarini va ma'muriy manbalar ma'lumotlaridan foydalanishni kengaytirish orqali respondentlarga hisobot yuklamasini kamaytiradi;

olingan birlamchi statistika ma'lumotlaridan faqat rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash uchun foydalanadi.

Rasmiy statistikani sifatini ta'minlash faoliyati doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida, bu borada xavfli va zararli omillarni o'rganish, tahlil qilish va baholash ishlari amalga oshiriladi.

Xavf-xatarlarni minimallashtirish va boshqarish maqsadida:

- zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi;
- ularning ijrosi yuzasidan monitoring va nazorat tashkil etiladi;
- bajarilgan chora-tadbirlarning samaradorligi baholab boriladi.

8. Foydalanuvchilar bilan aloqalar va jarayonlarni takomillashtirish

Rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga to'la muvofiq holda, shuningdek ayrim statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash hamda barchaga teng foydalanish imkoniyatini berish orqali e'lon qilinadi.

Statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida, rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan rasmiy statistikaning sifati masalalari yuzasidan muntazam ravishda maslahatlashuvlar o'tkaziladi hamda ularning fikrlari so'rab olinadi.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- to'g'ridan-to'g'ri, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan so'rovlar, taklif va mulohazalarni o'rganish va tahlil etish;
- foydalanuvchilar o'rtasida kuzatuvlar va so'rovlar o'tkazish;
- foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasini o'tkazish.

Statistika agentligi rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish va foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish maqsadida rasmiy statistika ma'lumotlari va statistik jarayonlar sifatini doimiy ravishda oshirib boradi.

Bunga:

- foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini muntazam ravishda o'rganib borish;

- ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng qo'llash;

- ilg'or xorijiy tajribalar asosida statistika uslubiyatlarini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish va takomillashtirib borish orqali erishiladi.